



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA NEOLOGIZMLARNING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Pardayeva Nasiba Boyqobulovna
O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti
Mustaqil izlanuvchisi
nasibapardayeva44b@gmail.com

Annotatsiya:

Mazkur tezisda ingliz va o'zbek tillarida neologizmlarning leksik xususiyatlari tahlil qilingan. Neologizmlarning shakllanish yo'llari, semantik imkoniyatlari va ijtimoiy omillar ta'sirida qanday rivojlanishi solishtirilib o'rganilgan. Ingliz tilidagi neologizmlar ko'proq ichki til dinamikasi bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida ular ko'pincha tashqi manbalardan kirib keladi yoki ijtimoiy ehtiyoj asosida shakllanadi. Tadqiqot natijalari har ikki til tizimidagi leksik yangilanishning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: neologizm, ingliz tili, o'zbek tili, leksik xususiyatlar, semantika, o'zlashma, til o'zgarishi

Annotation:

This thesis examines the lexical features of neologisms in English and Uzbek languages. It compares the formation methods, semantic capacities, and the influence of social factors on the development of neologisms. While English neologisms mainly arise from internal linguistic dynamics, Uzbek neologisms often emerge through borrowing or socio-political needs. The research highlights the distinctive features of lexical renewal in both language systems.

Keywords: neologism, English language, Uzbek language, lexical features, semantics, borrowing, language change



Hozirgi globallasuv sharoitida til doimiy o'zgarishga uchramoqda va bu jarayonda neologizmlar alohida o'rin egallaydi. Neologizm – bu yangi tushunchani ifodalovchi, til tizimida yangi paydo bo'lgan so'z yoki ibora bo'lib, u ko'pincha jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, texnologik va madaniy o'zgarishlarga javoban yuzaga chiqadi. Ushbu tezisda ingliz va o'zbek tillaridagi neologizmlarning leksik xususiyatlari solishtirilib, ularning shakllanish usullari va ma'no tizimidagi o'rni tahlil qilinadi.

Ingliz tilida neologizmlar asosan affiksatsiya (unfriend), blending (smog – smoke + fog), qisqartmalar (FOMO, AI), semantik kengayish (cloud) kabi yo'llar bilan shakllanadi. Ushbu tilning global maqomi sababli yangi so'zlar ommaviy madaniyat, texnologiya va ijtimoiy tarmoqlar orqali tez tarqaladi. Neologizmlar ko'p hollarda stilistik yoki metaforik ma'no yuklaydi, masalan: ghosting – munosabatni hech qanday izohsiz to'xtatish. O'zbek tilida esa neologizmlar ko'proq o'zlashuv (inglizcha: internet, kompyuter), tarjima (sun'iy intellekt, raqamli texnologiya), va ijtimoiy kontekst asosida (yoshlar daftari, mahalla yetiligi) shakllanadi. Til siyosati va rasmiy hujjatlarda neologizmlar ko'proq normativ tus oladi. So'z yasashda ko'pincha birikmalar, fonetik moslashtirish, va kontekst asosida moslashtirish kuzatiladi. Leksik o'zlashma neologizmlar esa tilga tamoman o'zlashib ketmagan o'zbek tilining o'zida yasalgan yoki boshqa tillardan o'zlashib butunlay iste'molga kirmagan so'zlardir Misol uchun, zovut, zamin studiyasi, Sarhad, kollej, menejment, bakalavriyat, magistratura, dastur, bar, bojxona, aksiya, bandargoh, tuman kabilar.

Leksik-semantik jihatdan ingliz tilidagi neologizmlar ko'p ma'nolilikka va keng qo'llanishga ega bo'lsa, o'zbek tilidagi neologizmlar ko'proq rasmiy, ma'muriy kontekstdan oziqlanadi. Har ikki til uchun ham neologizmlar so'z boyligini yangilash, ijtimoiy hodisalarni til orqali ifodalashda muhim vosita hisoblanadi.

Neologizmlar til taraqqiyotining ajralmas bo'lagidir. Ingliz tilida ular tilning tabiiy ichki dinamikasi orqali paydo bo'lsa, o'zbek tilida ko'proq tashqi ta'sir va rasmiy ehtiyojlar bilan shakllanadi. Har ikkala til tizimida ham neologizmlar zamonaviylik, madaniyat va texnologik taraqqiyotning tildagi ifodasi sifatida muhim leksik qatlarni tashkil etadi. Ularning o'rganilishi tilshunoslikda leksik o'zgarishlarni



anglash, til siyosatini shakllantirish va tarjima jarayonlarini yengillashtirishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eldorbek Farxod O'g'li Abduvaitov "O'zbek tilida neologizmlar"- <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilida-neologizmlar/viewer>
2. Madaminova Mohinabonu Ma'rufjon qizi "O'zbek tili lug'at tarkibining neologizmlar bilan boyib borishi"- <file:///C:/Users/User/Downloads/CAJEI+0314.pdf>
3. O'zbek tilining izohli lug'ati (elektron) - <https://izoh.uz/word/neologizm>
4. Suyarova Sug'diyona Mirhomid qizi "Zamonaviy ingliz tilidagi neologizmlar: ijtimoiy tarmoqlar ta'siri" - <file:///C:/Users/User/Downloads/ilm-fan+2438.pdf>